



## **MATEMATIKA O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH**

**Nurmatov Sardor Siddiqovich**  
*Qo'qon universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Interfaol metod – ta'lif jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtaqidagi faollilikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqolada matematika darslarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan interfaol metodlar haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** matematika, metodika, interfaol metodlar, kubik metodi, sinkveyn metodi, venn diagrammasi, klaster metodi, son qatnashgan maqollar aytishuvi metodi.

**Abstract.** Interactive method - serves to develop personal qualities, activating the acquisition of knowledge by increasing the activity between students and the teacher in the learning process. This article discusses interactive methods that can be used in math lessons.

**Keywords:** mathematics, methodology, interactive methods, cubic method, funnel method, Venn diagram, cluster method, numerical operator method.

### **KIRISH**

Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'lifning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sindf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'liftarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Yangi pedagogik texnologiyaning afzalligi zamon sinovidan o'tib, interfaol darsning sifat va samaradorligin oshirishda muhim omil ekanligi o'z isbotini topmoqda.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Bu borada ancha-muncha tajriba to'plagan tadqiqotchilar pedagogik texnologiya darsining muvaffaqiyatlarini kafolotlavchi omil ekanligini ta'kidlab, pedagogik jarayonlarni ilmiy lohihalashtirish, uni amalga oshirish, loyihalashtirilgan ta'lif tarbiya jarayonini amaliyatga aniq va ketma-ket tatbiq qilish xususida o'z fikrmulohazalarini ommaning diqqat-e'tiboriga havola etayotir.



# ANALYSIS OF INTERNATIONAL SCIENCES

## International scientific journal

Volume: 2 Issue: 6



Ta'lim oluvchilar, guruh a'zolarining majburiyatlarini bilishlari va bajarishlari zarur:

- har bir a'zo o'rtoqlari fikrini eshitishi kerak;
- har bir a'zo ishda faol qatnashishi va hamkorlikda ishlashdan bo'yin tormasligi kerak;
- har bir a'zo, zarurati bo'lganda yordam so'rashi kerak;
- har bir a'zo undan yordam so'rashganda, boshqalarga o'z yordamini berishi kerak;
- har bir a'zo guruh ishining natijalarini baholashda ishtirok etishi kerak;
- har bir a'zo o'zining rolini yaxshi tushunishi va bajarishi kerak.

Kubik metodi. Kubik metodidan darsni mustahkamlash vaqtida foydalansa yaxshi natija beradi.

1-qadam: o'quvchilarga mavzu o'tilgandan so'ng unga biror tushuncha shaklla Shakllangan tushunchani quyidagicha yozish taklif etiladi.

1. Tasvirlang;
2. Taqqoslang;
3. O'xshating;
4. Tahlil qiling;
5. Ishlating;
6. Foydali va zararli tomonlari.

Masalan mavzu: "Prizma"

Asosi to`g`ri to`rtburchak, qarama qarshi yoqlari o`zaro teng va paralell bo`lgan prizma to`g`ri prizma deyiladi.

To`g`ri parallelopiped va to`rtburchakli prizma.

Sinf xonasi, gugurt quttisi, yashik, shkaf.....

2 ta asos, 4 ta yoq, 4 ta yon qirra, 12 ta umumiyl qirra, 8 ta uchi bor.

Shkaf (kiyimlar saqlanadi), gugurt(gugurt donalari saqlanadi), xona (odam yashaydi)....

Gugurt – olov yoqish uchun foydali.

Gugurt – bolalar uchun havfli. Sinkveyn metodi.

Sinkveyn fransuzcha so'z bo'lib "besh" degan ma'noni bildiradi. o'quvchilarga darsni mustahkamlash bosqichida biror fizik kattalik, asbob, hodisa nomi, fizik olimni quyidagicha besh qatorli misraga solishni taklif etish lozim.



# ANALYSIS OF INTERNATIONAL SCIENCES

## International scientific journal

Volume: 2 Issue: 6



Ot (1 so‘z), Sifat (2 so‘z), Fe’l (3 so‘z).

Ibora (gap bilan ta’rifi beriladi).

Sinonim (1 so‘z yoziladi, otga yozilgan so‘z bilan ma’nosi bir xil bo‘lsin).

Masalan mavzu: “Kesmaning yo’nalishi. Vektor”

Vektor

Erkin, nol nuqta

Yasash, yo`naltirish, qabul qilish.

Agar vektoring boshi va oxiri ustma ust tushsa bunday vektor nol vektor deyiladi.

Nur (chegaralangan).

Sinkveyn metodidan foydalanish o`quvchilarni chuqur mulohaza qilishga o`rgatadi.

Venn diagrammasi.

«Diagramma vena» qiyosiy taxlilda juda qo‘l kelib, mavzuni sharxlab, ikki muammoni bir-biriga muqoyasa qilib o‘tishda qulay usuldir. Bu usul ikki doira shaklidagi aylana chiziqlarning qo‘shilishi holatida bo‘lib doiralarning ikki tarafiga tanlangan mavzuning faqat o‘ziga xos individual xususiyatlari yozilib, o‘rtada ikki doiraning qo‘shilishi natijasida paydo bo‘lgan bo‘shliqda esa tanlangan ikki mavzuga xos turli fikrlar, xususiyatlar g‘oyalar ko‘rinishi izohlab boriladi. Bir qarashda oddiydek tuyulgan bu usul o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini oshiradi, xotirani kuchaytiradi. U yoki bu mavzu ustida mustaqil ishlashga undaydi. Ikki mavzuning umumiy va individual, ya’ni faqat o‘ziga xos tomonlarini tez farqlaydi. Mavzu tez va uzoq vaqt esda qoladi. «Diagramma vena» o‘quvchini hushyorlikka, sezgirlikka chorlaydi. O‘quvchilar 4—5 tadan uch guruhga, jami 15 taga ajratiladi. 1-guruh doiraning o‘ng tomoni, 2-guruh doiraning chap tomoni, 3-guruh ikki doiraning qo‘shilishidan paydo bo‘lgan bo‘shliq ustida ishlaydi. Mavzuni keng qamrovli o‘zlashtirib olishga ko‘maklashadi. Guruxdagি qolgan o‘quvchilar esa kuzatuvchilardir, ya’ni «Diagramma vena» ustida ishlayotgan 3 guruhning harakatlarini kuzatadilar. Hatto baholashlari ham mumkin. Dars, mavzu, harakatlar uzoq vaqg esda saqlanib qoladi. «Diagramma vena» turli xil g‘oya, fikrlar kurashi va hujumini, munozaralarni keltirib chi-qaradi. O‘quvchilarni o‘ylantiradi, mustaqil fikrlashga undaydi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA



# ANALYSIS OF INTERNATIONAL SCIENCES

## International scientific journal

Volume: 2 Issue: 6



Bu metod o‘quvchini kattaliklarni qiyoslashga undaydi. quyidagiday doiralar chiziladi. Ikkita kattalik taqqoslanadi. Bir xil jihatlari o‘rtada (aylanalar kesishgan qismida yoziladi. O‘ziga xos jihatlari aylanada yoziladi.

Klaster metodi.

Klaster inglizcha so‘z bo‘lib (kluster) bosh, bir shingil, popuk ma’nosini anglatadi. Klaster - bu ma’lum mavzu bo‘yicha erkin va ochiq fikrlashning notekis shaklidir.

Bu metod o‘quvchini kattaliklarni qiyoslashga undaydi. quyidagiday doiralar chiziladi. Ikkita kattalik taqqoslanadi. Bir xil jihatlari o‘rtada (aylanalar kesishgan qismida yoziladi. O‘ziga xos jihatlari aylanada yoziladi. Klaster metodi. Klaster inglizcha so‘z bo‘lib (kluster) bosh, bir shingil, popuk ma’nosini anglatadi. Klaster - bu ma’lum mavzu bo‘yicha erkin va ochiq fikrlashning notekis shaklidir.

1-qadam: Yangi mavzuning asosiy tushunchasi aylana (elips) shaklidagi chizma ichida yoziladi. Masalan yangi mavzu "Kvadrad" bo‘lsa quyidagicha daftarlariga chizish va yozish taklif etiladi.

2-qadam: o‘quvchilarga kvadrat deganda ko‘z oldingizga kelgan fikrlarni chiziqchalar yoniga yozish taklif etiladi. (Bunda o‘quvchi rasmini chizsa ham ruxsat beriladi).

3-qadam: Taqdimot o‘tkaziladi. Bunda o‘quvchilar tomonidan yozilgan fikrlar umumlashtirib aytib beriladi. (Guruhdan 1 o‘quvchi spiker aytib beradi). Bu fikrlarni doskada bo‘r yoki plakatda flomasterlar bilan yozish mumkin.

4-qadam: Yangi mavzu o‘rganiladi.

5-qadam: Darsni mustahkamlash bosqichida o‘quvchilarga quyidagi topshiriq beriladi. q·izil rangli ruchkalaringizni (yashil, qora bo‘lsa ham bo‘ladi) olib yangi o‘rganilgan tushunchalar bilan boyiting.

Son qatnashgan maqollar aytishuvi

Maqsad:

Son qatnasshgan maqollar orqali O‘zbek xalq maqollari degan boy merosimizdan foydalangan holda o‘quvchilarni milliy g‘urur,axloqiy his tuyg‘ularni hakllantirish, ma’naviy tuyg‘ularini rivojlantirish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalab ,Vatan va Vatanga muhabbat tushunchalarini o‘quvchilar ongiga sindirish. ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o‘sirish va sonning dunyodagi roli haqida tushuncha berib, ko‘nikma va malaka hosil qilish.



# ANALYSIS OF INTERNATIONAL SCIENCES

## International scientific journal

Volume: 2 Issue: 6



### XULOSA

Har bir o‘quvchi kamida 10 ta son qatnashgan maqol aytishi kerak . Aytish tartibi: navbatma navbat, bitta bittadan maqol aytildi. 10 tadan kam maqol aytgan o‘quvch o‘yinni tark etadi.

### References:

1. Ikromov J., Mirzaahmedov M. va boshqlar. Matematika. O‘rta maktabning 5-6-sinflari uchun o‘quv qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi, 2002.
2. Mirzaahmedov M., Rahimqoriev A. Matematika 6-sinf. Umumiyl o‘rta ta’lim maktablari 6-sinfi uchun darslik. – T.: O‘qituvchi, 2007.
3. Колмогоров А.Н. Математика – наука и профессия. – М., 1998.
4. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. – М., 1998
5. Shahnoza, I., & Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA ERTAKLARNING O‘RNI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 806-808.
6. Ikromjonovna, J. S. (2023). UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA JORIY ETILGAN YANGI DARSLIKLARNING AFZALLIK JIHATLARI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 661-663.
7. Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARGA TA’LIM BERISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METOD VA VOSITALARNING AHAMIYATI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 581-583.
8. Ikromjonovna, J. S. (2023). THE ROLE OF FOLK TALES AND EPIC MOTIVES IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Open Access Repository, 9(4), 545-548.
9. Maxliyoxon, O., & Nilufar, Y. L. (2024). BOSHLANG ‘ICH TA’LIM SINFLARIDA YOD O‘QISH VA BADIY O‘QISHNING MUHIMLIGI. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 3(1), 46-51.
10. Ikromjonovna, J. S., & Axadjon o‘g‘li, A. A. (2023). O ‘ZBEKİSTONDA PISA TESTİ NATIJALARI VA BOSHLANG ‘ICH TA’LIM O ‘QUVCHILARINI BU TESTGA TAYYORLASH İSTIQBOLLARI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9, 159-162.
11. O Maxliyoxon, J Shaxnozaxon. (2024). DRAMA AND ARTISTIC READING IN PRIMARY GRADES: Study guide. ISBN-13 : 979-8324468415 1, 142